GENDER TENGLIK-DAVR TALABI

Soataliyeva Dilyora Sarvarjon qizi
O‘zMTU “Ekologiya va huquq” fakulteti, “Filologiya va tillarni o’qitish” kafedrasi 111-guruh 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada gender tenglikning ijtimoiy-falsafiy, huquqiy va antropologik jihatlari tahlil qilinib, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy-mehnat munosabatlari va jinsiy-fiziologik jihatlarda gender tenglikning qo‘llanishiga doir mulohazalar keltirilgan. Ayollarning huquqlarini himoyalash, ayniqsa gender tenglikka amal qilish jamimyat taraqqiyotining muhim asosi ekani o‘rganilgan.

Kalit so’zlar: jinslar o’rtasidagi tenglik; jinsiy tafovut,gender strategiyasi,gender yondashuv,qonun,jamiyat,farqlar.

Kirish: Gender tenglik (lotinchadan paritas – tenglik) — muvozanatli, ya’ni, hayotning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy) hokimiyat va qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollarning bir xil, teng ishtiroki, jinslar o‘rtasidagi tengligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda siyosiy va iqtisodiy institutlarning tenglik darajasi mamlakatlar demokratiyasining ko‘rsatkichi hisoblanadi va bu ma’lumotlar ko‘plab xalqaro indekslarga kiritilgan.Global miqyosda erkaklar siyosatda ayollarga qaraganda ko‘proq qatnashadi va lavozimlarni egallaydi. Mutaxxassislarning fikriga ko‘ra, boshqa barcha kasblar orasida ayniqsa siyosat sohasida gender tengligiga erishish juda mushkul. Shunday qilib, jinsiy tafovuf bo‘yicha Global hisobotga ko‘ra, agar siyosiy vakillikdagi gender tengligining o‘zgarish darajasi hozirgi darajada saqlanib qolsa, dunyoda gender tengligiga erishish uchun o‘rtacha 95 yil, ta’lim sohasida gender tenglikka erishish uchun esa 12 yil kerak bo‘ladi.Tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyili gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.[8]

Mavzuning dolzarbligi: Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i: erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra , gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

O‘zbekistonda gender tengligi.O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o‘spirin qiz uchun tug‘ish ko‘rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Bu o'rinda aholining turli qatlamlari va guruhlarining ijtimoiy roli va imtiyozlaridan kelib chiqqan holda rivojlanish jarayonidagi ishtirokiga nisbatan gender yondashuvini qo'llash kuzatilmoqda. "So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.Gender

tengligini rivojlantirishni maqsad qilib olgan har bir jamiyat bir qator vazifalarni o'z ichiga olgan gender rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi:

- xotin-qizlarning ehtiyojlarni hisobga olgan holda ularni birinchi o'ringa qo'yish va ularni hisobga olish;
- ayollarning jamiyatning barcha sohalardagi mavqeining erkaklar mavqeiga nisbatan holatini aniqlash;
- ayollarning o'z mavqei, talablari va ehtiyojlarini anglashiga erishishini aniqlash- ayollar taraqqiyoti yo'lidagi to'siqlarni aniqlash- ayollar faoliyati ko'lamini kengaytirish, ularning an'anaviy erkak kasblarini egallash imkoniyatlarini aniqlash;
- ayollarning kamsitilishi va xo'rlanishining bevosita sabab va oqibatlarini bartaraf etish va hokazo.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlashi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar bilan ta'minlanishini kafolatlaydi.

So'nggi o'n yillikda jahon hamjamiyati gender tengligiga erishishni dunyodagi boshqa dolzarb global vazifalar, xususan, barqaror rivojlanish maqsadini amalga oshirishda muhim yo'nalish sifatida ko'rilmoqda. 2000 yil sentyabr oyida BMTga a'zo davlatlar sammitida qabul qilingan Ming yillik deklaratsiyasida gender tengligini ta'minlash nafaqat qashshoqlik va ochlikni kamaytirish va taraqqiyotning muhim sharti ekanligi aniq ta'kidlandi. Bu tamoyil O'zbekiston tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, Mingyillik sammitida 147 davlat va hukumat rahbarlari tomonidan ma'qullangan yuqorida tilga olingan hujjat jahon hamjamiyatining hayotining kun tartibidagi muhim masalaga aylandi.

Maqsad: Ushbu hujjatda rivojlanishning aniq yo'nalishlari bo'yicha 8 ta maqsad belgilangan bo'lib, ularning uchinchisi -ayollarga nisbatan kamsitishlarga qarshi kurashish va gender tengligini targ'ib qilishdir. Bundan tashqari gender tengligi 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibini tashkil etuvchi 17 ta global maqsadlardan biridir. Barqaror rivojlanish maqsadlari ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishlarga to'liq va umumbashariy barham berishni ta'minlash orqali ushbu yutuqlarni chuqurlashtirish va kengaytirishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda ayrim hududlarda haq to'lanadigan bandlik imkoniyatlarida gender tengsizligining sezilarli darajada saqlanib qolmoqda, shuningdek, mehnat bozorida erkaklar va ayollar o'rtasidagi sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya, haq to'lanmaydigan parvarish va uy ishlarining teng taqsimlanmaganligi, ayrim qarorlarni qabul qilishda kamsitish elementlarining hali ham saqlanib qolayotgani rivojlanish uchun katta to'siq bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy falsafiy va huquqiy tafakkurda inson va uning subyektiv huquqlariga antropologik yondashuvni rivojlantirishning yangi paradigmasi joriy etilmoqda, chunki inson hayoti, qadr-qimmati, erkinligi, adolati, tengligi zamonaviy ilmiy-falsafiy fanlarda muhim qadriyatlar sifatida keng muhokama qilinmoqda. Gumanitar fanning muhim tushunchasi va muammosi bo'lgan "kelajak shaxsi" -zamonaviy tarzda tarbiyalangan, yuksak psixofizik, axloqiy va intellektual fazilatlarga ega, rivojlangan ehtiyoj va qiziqishlarga ega, umuminsoniy qadriyatlarni, jumladan, gender tengligini tan oladigan shaxsdir. Bugungi zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, jinsidan qat'i nazar inson salohiyatidan va imkoniyatdaridan sifatli va samarali foydalanish mamlakatni taraqqiyot sari yetaklaydi, chunki ayollar ham, erkaklar ham imtiyozlar, diniy e'tiqodlar, terining rangi, yoshi va jinsidan qat'i nazar har bir inson amalga oshishi mumkin bo'lgan rivojlangan jamiyat qurishning tengdosh a'zolaridir. Shu sababli, antropologik tendensiyalarning zamonaviy sharoitida shaxsning ustuvorligini joriy etish gender tengligi kabi qadriyatni tizimli tahlil qilishni talab qiladi.

O’zbekistonda gender tengligi va taraqqiyot

Prezidentimiz BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz”, deya ta’kidladi. Islohotlarning bugungi bosqichida mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasidagi islohotlar tizimli davom ettirilyapti. Bu ishlarni yangi pog‘onaga olib chiqish maqsadida 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi.Erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi 18 yosh etib belgilandi, ayollar mehnati to‘liq yoki qisman qo‘llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo‘lgan ishlar ro‘yxati bekor qilindi. Ichki ishlar tizimida xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha inspektor lavozimi joriy etildi.Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlandi. Mazkur hujjat bilan xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab olindi va amaliy ijrosi ta’minlanyapti. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda voyaga yetayotgan qizlarga oliy ta’lim muassasasida tahsil olishi uchun 4 foizli kvota ajratildi. 2022-yil 9-fevraldan boshlab ayollarga pensiya hisoblashda bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lgan davri qo‘shib hisoblanadigan ish staji muddati 3 yildan 6 yilga oshirildi. Bolalikdan nogironligi bo‘lgan bolalarga qaragan davr ish staji sifatida inobatga olinadigan muddat 16 yoshdan 18 yoshgacha uzaytirildi.2022-yil sentyabr oyidan xususiy korxona va tashkilotlarda ayollarga davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan homiladorlik va tug‘ish nafaqasi belgilandi. Oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o‘qiyotgan xotin-qizlar uchun foizsiz ta’lim kreditlari joriy qilindi, magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to‘lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi.

Dunyo miqiyosida gender tenglik: Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi gender tengligi sohasidagi eng muhim xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi. Unda tanlov erkinligi va imkoniyatlar tengligi tamoyillari mustahkamlangan. Deklaratsiyada, xususan, barcha qizlar va ayollar zo‘ravonliksiz yashash, ta’lim olish va erkaklar qatori teng ish haqi olish huquqiga ega ekanligi ta’kidlanadi. BMTda dunyodagi hukumat vakillari va rahbarlarining faqatgina 25 foizini ayollar tashkil etishi eslatib o‘tildi. Parlament a’zolarining 75 foizi va rahbarlarining 73 foizi hanuzgacha erkaklardir.

Chet mamlakatlarda ayollarga e’tibor va ularning huquqlari. Misol uchun, 2015-yilda [Pokiston]|Birlashgan Millatlar Tashkilotining]] Gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo‘yicha bo‘limi tomonidan hisobot tayyorlandi. Hisobotning asosiy masalalaridan biri ayollarni ish bilan ta’minlash masalasi edi. Hisobot mualliflarining fikriga ko‘ra, oliy ma’lumotli ayollar soni tarixiy maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta’minlanish holati achinarli ko‘rinishga ega. Oliy o‘quv yurtlari,Universitetlarni imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, tibbiyot va matematika kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Hatto ish topishga muvaffaq bo‘lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o‘zlarini ishonchli his qila olmaydilar. Ushbu masala rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb bo‘lib, ularda ayollarning 75 foiz ish o‘rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalanmaganini tashkil etadi. Hisobotda ta’kidlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal daraja emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiyada ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31 foizga kam, Germaniyada 49 foizdan kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Hisobot mualliflarining fikriga ko‘ra, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari butun dunyo bo‘ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta’minlash huquqi kerak.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, erkaklar va ayollar ish haqidagi farq o‘rtacha 37,8% ni tashkil etadi (bu ko‘rsatkich mamlakatlar bo‘yicha juda katta farq qiladi — Buyuk Britaniyada 18,1% va Angolada 59,6 %ni tashkil etadi.

Gender tengligi bo‘yicha xalqaro tashkilot

Norvegiyada teng imkoniyatlar loyihalarini moliyalashtiradigan Shimoliy Gender tengligi instituti (1970-yilda Shimoliy Shimoliy Vazirlar Kengashi ko‘magida tashkil etilgan) mavjud.

Global gender farqi hisoboti birinchi marta 2006-yilda Jahon iqtisodiy forumi tomonidan nashr etilgan. Global Gender Gap Index — bu gender tengligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan indeks. U „mamlakatlarni ushbu resurslar va imkoniyatlarning umumiy darajasidan qat’i nazar, o‘z resurslari va imkoniyatlarini erkak va ayol aholisi o‘rtasida qanchalik to‘g‘ri taqsimlayotganini baholaydi“. „Gender gender tafovutlarini baholash va taqqoslash uchun tushunarli asosni taqdim etish hamda ushbu resurslarni ayollar va erkaklar o‘rtasida teng taqsimlashda namuna bo‘lgan mamlakatlarni ochib berish orqali Hisobot siyosatchilar o‘rtasida kengroq xabardorlik hamda ko‘proq almashinuv uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi“.

Xulosa:Tabiiy huquqda ham, pozitiv huquqning asosiy mazmuni va g'oyasiga ko'ra, eng oliy qadriyat - shaxsga qaratilgan. Huquqning tabiati haqidagi munozara inson tabiati bilan bog'liqdir. "Inson" tushunchasi bilan bir qatorda "shaxs", "individuallik" tushunchalari ekvivalent bo'lib, birinchi navbatda, ma'lum bir shaxsni shaxs sifatida hammadan, shu jumladan tabiiydan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatni tavsiflaydi. Inson taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan, irsiy va orttirilgan jismoniy, aqliy va ijtimoiy xususiyatlar mavjud bo'lib, shu jumladan jins ham insonning ajralmas asosiy xususiyati, uning tabiati bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Jins - bu insonning shunday o'ziga xos xususiyati, uni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Inson o'zining biologik tabiatini, o'zgarmasligini birinchi navbatda jinsda his qiladi. Gender inson va uning munosabatlarini boshqaradi, belgilaydi, ta'kidlaydi va ishontiradi. U o'zaro munosabatlarni saqlaydi, himoya qiladi, energiya, ilhom manbai bo'ladi. Jinsiy hayot tarzini, xulq-atvorini, niyat va intilishlarini va boshqalarni tavsiflovchi haqiqiy biologik (genetik-morfologik, anatomik, fiziologik) dan farqli o'laroq, jinsning ijtimoiy-jinsiy xususiyatlarini aniqlash uchun "jins" tushunchasi qo'llaniladi.Gender nafaqat erkaklar va ayollarni alohida shaxslar sifatida, balki ular o'rtasidagi ijtimoiy-demografik guruhlar va umuman gender munosabatlarini tavsiflaydi. Bu gender rollari va stereotiplarni hisobga olgan holda gender sotsializatsiyasi va shaxsiy identifikatsiya orqali sodir bo'ladi. Har safar zamonaviy sharoitda gender tushunchasi haqida gap ketganda, doimiy ravishda mavjud bo'lgan "ayollar muammosi" stereotipini yengib o'tishga to'g'ri keladi, shu bilan gender muammolari, birinchi navbatda, ijtimoiy muammolar, nafaqat ayollar, erkaklarning ham, butun jamiyatning muammolari ekanligini ta'kidlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari -Toshkent: O'zbeksiton, 2021. -B. 406
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/4494849
3. Декларация тысячелетия ООН от 08.09.2000 г. (www. undp.org.)
4. Султонова А.Р. Гендерное равенство как фактор устойчивого развития мирового сообщества European science № 4 (46)-С.31
5. Крочук М.И. Гендерное равенство как ценность права // Приволжский научный вестник 116 № 6 (22) - 2013-С. 112-113
6. Исаева Н.В. Гендерная идентичность как фактор обеспечения прав человека // Права человека и

проблемы идентичности в России и современном мире / под ред. О.Ю. Малиновой, А.Ю. Сунгурова. - СПб., 2005. - С. 188

7. Fuqarolik huquqlari va erkinliklari
8. http://www3.weforum.org/docs/GGGR14/GGGR_CompleteReport_2014.pdf|title=The Global Gender Gap Index 2014|last=Ricardo Hausmann|date=2014|publisher=World Economic Forum, Geneva, Switzerland|accessdate=2014-11.